

OLIY MAJLIS SENATINING IJRO HOKIMIYATI FAOLIYATI USTIDAN  
PARLAMENT NAZORATI: VAZIFA VA FUNKSIYALARI

Rasulova Tursunoy To‘lqinovna

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti.

Telefon: +99891-595-50-53 [trasulova87@gmail.com](mailto:trasulova87@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1565124>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazorati bo‘yicha vazifa va funksiyalarini yangi tahrirdagi Konstitutsiya (2023-yil) asosida tahlil qilgan. Tadqiqotda Senatning qonun ijrosini monitoring qilish, parlament so‘rovlari, tinglovlar va maxsus komissiyalar orqali nazorat mexanizmlari o‘rganilgan. Yangi Konstitutsiya doirasida Senat vakolatlarining kengayishi, xususan, parlament tekshiruvi institutining joriy etilishi tahlil qilingan. Maqola nazorat jarayonidagi muammolarni aniqlab, samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar bergan.

**Kalit so‘zlar:** Oliy Majlis Senati, parlament nazorati, ijro hokimiyati, Konstitutsiya, parlament so‘rovi, parlament tekshiruvi, qonun ijrosi, demokratik boshqaruvi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются задачи и функции Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан по парламентскому контролю за деятельностью исполнительной власти на основе Конституции в новой редакции (2023 год). В исследовании изучены механизмы контроля Сената за исполнением законов посредством парламентских запросов, слушаний и специальных комиссий. Проанализировано расширение полномочий Сената в рамках новой Конституции, в частности, введение института парламентского расследования. В статье выявлены проблемы в процессе контроля и даны предложения по повышению эффективности.

**Ключевые слова:** Сенат Олий Мажлиса, парламентский контроль, исполнительная власть, Конституция, парламентский запрос, парламентское расследование, исполнение закона, демократическое управление.

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri (2023-yil) parlamentning, ayniqsa Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytirdi. Demokratik boshqaruvning muhim elementi hisoblangan parlament nazorati davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi va qonunchilik ijrosini kuzatib boradi. O‘zbekiston parlamentining yuqori palatasi sifatida Senat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, qonunlarning bajarilishini va davlat dasturlarining amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu maqola yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida Senatning nazorat vazifalari, ularning huquqiy asoslari va amaliy qo‘llanilishini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

**Maqolaning maqsadi** Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishdagi vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda yangi Konstitutsiya doirasida ushbu jarayonning samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot savollari quyidagicha shakllantirilgan: 1) Konstitutsiyaning yangi tahriri Senatning nazorat vakolatlarini qay darajada kengaytirdi? 2) Senat ijro hokimiyati ustidan nazoratni qanday usullar bilan olib boradi? 3) Ushbu nazorat jarayonida qanday muammolar mavjud?

### Metodologiya

Tadqiqot sifatlari tahlil usuliga asoslangan. Asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri (2023-yil), Oliy Majlis Senati to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, parlament faoliyatiga oid rasmiy hisobotlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullar qo'llanilgan:

1. Huquqiy tahlil: Senatning nazorat vakolatlariga oid Konstitutsiya va qonun hujjatlari moddalari tizimli ravishda o'rganilgan.
2. Qiyoziy tahlil: Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan avvalgi (1992-yilgi) Konstitutsiya o'rtaqidagi farqlar aniqlangan.
3. Amaliyot tahlili: Senatning so'nggi yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobot va qarorlari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotda asosiy e'tibor Senatning ijro hokimiyati bilan o'zaro hamkorligi, qonunlar ijrosini va senatorlar faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari, jumladan, so'rovlar yuborish va eshituvlar o'tkazish kabi masalalarga qaratilgan.

### Tadqiqot natijalari

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya (2023-yil) Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati ustidan nazorat funktsiyalarini kengaytirdi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Konstitutsiyaning 93-moddasida Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlarida parlament nazorati sohasida qo'shimcha vakolatlar nazarda tutildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasida korrursiuaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish; parlament tekshiruvini o'tkazish nazarda tutilgan bo'lsa<sup>1</sup>, avvalgi Konstitutsiyaning 78-modda birinchi qismining 21-bandи tahririda bauon qilingan "Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari doirasiga parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishi" borasidagi vakolati birgalikdagi vakolatlardan chiqarib tashlangan.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Vazirlar Mahkamasi faoliyati ustidan parlament nazoratiga oid asosiy vakolatlar, jumladan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullah;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan, shuningdek Vazirlar Mahkamasi a'zolarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish;

<sup>1</sup> Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zoligiga nomzodlarni ko‘rib chiqish va ma’qullah;

4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hauotining eng muhim masalalari bo‘yicha har yilgi ma’ruzasini eshitish;

5) davlat organlarining mansabdar shaxslariga parlament so‘rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish kabilar Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari sifatida belgilangan<sup>2</sup>.

Ushbu holat Oliy Majlis Senatining ijro hokimiysi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishga oid vakolatlarining qisqarganligi yoki susaytirilganligini anglatmaydi, deb hisoblaymiz Ushbu fikrni quyidagi qonunchilik asoslar orqali asoslash mumkin.

Konstitutsianing 95-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular orasida quyidagilar bizningcha yuqori palatani parlament nazorati funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbarini va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbarini saylash, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi lavozimlariga nomzodlarni ko‘rib chiqish hamda ma’qullah, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash; davlat organlarining mansabdar shaxslariga parlament so‘rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish (ushbu vakolat avvalgi Konstitutsianing 80-moddasida nazarda tutilmagan edi); mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, bekor qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hauot sohasidagi u yoki bu masalalar uuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish<sup>3</sup>.

Konstitutsianing 101-moddasi 5-qismining 4-bandida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi “O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi” deb belgilangan<sup>4</sup>.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada parlament palatalari, jumladan Senat vakolatlari doirasida belgilangan parlament nazoratining yangi shakli bu shubhasiz parlament tekshiruvi instituti sanaladi. Jumladan, Konstitutsianing 103-moddasiga asosan “Mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarни o‘rganish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma qarori bilan parlament tekshiruvi o‘tkazilishi mumkin.

<sup>2</sup> H.H. Sulaymonovich “Oliy Majlis senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish” Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi UO‘K: 342.53 (575.1) T.:2024.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

Parlament tekshiruvini o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Majlisi Qonunchilik palatasi derutatlari va Senati a’zolari orasidan tenglik asosida maxsus komissiuu tuzilib, u o‘z faatini qonunga muvofiq amalga oshiradi”, deb belgilangan<sup>5</sup>.

“O‘zbekiston Respublikasi Majlisining Senati to‘g‘risida”gi ushbu Konstitutsiyaviy qonunning 8-moddasi 1-qismi 11-bandiga asosan, Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari jumlasiga “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetini qabul qilish hamda uning ijrosini nazorat qilish” vazifasi ham kiritilgan<sup>6</sup>.

Bundan tashqari, senat qo‘mitalari davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan qonunlarning, Senat qarorlarining ijro etilishi holatini, huquqni qo‘llash amaliyotini vaqtqi-vaqtqi bilan joylarga chiqib o‘rganish vakolati ham Senatning ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda juda muhim sanaladi.

### Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri qabul qilinishi Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi.

Senatning qonunlar ijrosini kuzatish, parlament so‘rovlarini va eshituvlari orqali ijro hokimiyati faoliyatini tahlil qilishdagi roli kuchaytirildi. Biroq, nazorat jarayonining samaradorligini yanada oshirish uchun resurslarni ko‘paytirish, shaffoflikni ta’minlash va qonuniy vakolatlarni kengaytirish lozim. Ushbu chora-tadbirlar demokratik boshqaruvni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun // Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2002. – 12-son. 213-modda.
3. H.H. Sulaymonovich “Oliy Majlis senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish” Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dessertatsiyasi UO‘K: 342.53 (575.1) T.:2024.

<sup>5</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.-son.

<sup>6</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun // Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2002. – 12-son. 213-modda.